



# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.**  
Toshkent viloyat doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 2951,5 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylarida 9,6 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan.

## E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni **9,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **14,0 ming nafami** tashkil etdi.
- **4,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,2 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.



## Toshkent viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart)





## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

### Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi (2020-yilning 1-aprel holatiga ko'ra)





## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

### Toshkent viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni


(2020-yilning 1-aprel holatiga ko'ra)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, % da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>2951,5</b>	<b>1451,0</b>	<b>1500,5</b>	<b>100,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,4</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	48,9	48,9	x	100,3	100,3	x
Olmaliq	131,5	131,5	x	100,3	100,3	x
Angren	189,0	189,0	x	100,4	100,4	x
Bekobod	96,1	96,1	x	100,3	100,3	x
Chirchiq	157,7	157,7	x	100,3	100,3	x
Ohangaron	38,2	38,2	x	101,2	101,2	x
Yangiyo'l	60,7	60,7	x	100,5	100,5	x
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	105,3	24,9	80,4	100,3	99,7	100,3
Ohangaron	95,9	14,9	81,0	100,3	99,3	100,3
Bekobod	157,8	29,0	128,8	100,3	99,3	100,3
Bo'stonliq	169,3	95,7	73,6	100,2	99,3	100,3
Bo'ka	125,9	23,8	102,1	100,3	99,3	100,3
Zangiota	198,0	81,8	116,2	100,3	99,8	100,4
Qibray	200,9	87,6	113,3	100,2	99,8	100,3
Quy Chirchiq	108,3	25,8	82,5	100,2	99,8	100,3
Parkent	155,3	74,8	80,6	100,3	99,9	100,4
Piskent	101,2	46,2	55,0	100,5	99,9	100,5
O'rta Chirchiq	149,9	16,2	133,7	100,4	98,4	100,4
Chinoz	134,1	65,1	69,0	100,3	99,9	100,4
Yuqori Chirchiq	135,9	23,5	112,4	100,4	99,4	100,3
Yangiyo'l	210,5	32,2	178,3	100,2	99,3	100,3
Toshkent	181,0	87,4	93,6	100,3	99,9	100,4




## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

### Toshkent viloyati aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ming kishida)




Doimiy aholi soni shahar, qishloq kesimida  
(foizda)

Doimiy aholi soni erkak, ayol kesimida  
(foizda)



■ Shahar aholisi   ■ qishloq aholisi



■ erkak   ■ ayol



## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

**Tug'ilish.** 2020-yil yanvar-mart oylarida 14,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,1 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega ko'paygan (2019-yil yanvar-mart oylarida 18,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Ohangaron shahrida (20,9 dan 37,5 promillega), O'rta Chirchiq tumanida (20,1 dan 21,6 promillega), Olmaliq shahrida (18,8 dan 20,0 promillega), Yangiyo'l shahrida (15,4 dan 17,8 promillega), Piskent tumanida (15,8 dan 22,6 promillega), Qibray tumanida (19,3 dan 19,6 promillega) va Zangiota tumanida (18,8 dan 19,6 promillega) tumanlarida ko'payishi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



**Qiz bolalar:**  
6,7  
ming nafar



**O'g'il bolalar:**  
7,3  
ming nafar

### 2019-2020-yil yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga	
	2019-yil.	2020-yil. <sup>↓</sup>	o'sish, kamayish	o'sish,	kamayish
Tug'ilganlar	<u>13135</u>	<u>14024</u>	889	18,4	19,1
O'lganlar	<u>3929</u>	<u>4003</u>	74	5,5	5,5
Tabiiy o'sish	<u>9206</u>	<u>10021</u>	815	12,9	13,6
Nikohlar	<u>4412</u>	<u>4156</u>	-256	6,2	5,7
Ajralishlar	<u>915</u>	<u>831</u>	-84	1,3	1,1





## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

### Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart




	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-martga nisbatan % hisobida
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>13135</b>	<b>14024</b>	<b>106,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	182	267	146,7
Olmaliq	581	654	112,6
Angren	694	837	120,6
Bekobod	368	359	97,6
Chirchiq	508	512	100,8
Ohangaron	135	354	262,2
Yangiyo'l	233	395	169,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	497	510	102,6
Ohangaron	456	489	107,2
Bekobod	770	741	96,2
Bo'stonliq	686	691	100,7
Bo'ka	668	630	94,3
Zangiota	908	965	106,3
Qibray	863	825	95,6
Quyichirchiq	489	609	124,5
Parkent	779	761	97,7
Piskent	396	567	143,2
O'rta Chirchiq	766	802	104,7
Chinoz	694	670	96,5
Yuqori Chirchiq	638	621	97,3
Yangiyo'l	974	875	89,8
Toshkent	850	890	104,7



## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni,

Vafot etganlar



2,2 ming  
kishi



1,8 ming  
kishi


	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-martga nisbatan % hisobida
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 929</b>	<b>4 003</b>	<b>101,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	70	71	101,4
Olmaliq	215	216	100,5
Angren	253	302	119,4
Bekobod	120	108	90,0
Chirchiq	281	215	76,5
Ohangaron	63	155	246,0
Yangiyo'l	108	117	108,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	108	122	113,0
Ohangaron	110	103	93,6
Bekobod	187	167	89,3
Bo'stonliq	234	206	88,0
Bo'ka	135	133	98,5
Zangiota	235	248	105,5
Qibray	266	234	88,0
Quyichirchiq	126	202	160,3
Parkent	193	174	90,2
Piskent	116	156	134,5
O'rta Chirchiq	203	197	97,0
Chinoz	183	169	92,3
Yuqori Chirchiq	203	181	89,2
Yangiyo'l	278	265	95,3
Toshkent	242	262	108,3

2020-yil yanvar-mart oylarida aholi soni 9,6 ming kishiga ko'paydi. Tirik tug'ilganlar soni 14,0 ming nafarni tashkil etdi. 4,0 mingta vafot etganlar qayd etildi. FHDYo bo'limlarida 4,2 mingta nikoh va 0,8 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

**O'lim darajasi.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 4003 kishini tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga (3929 kishi) nisbatan 74 taga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 5,5 promilleni tashkil qildi (2019-yil yanvar-mart – 5,5 promille).

O'lganlar sonining kamayishi Bo'stonliq (5,7 dan 4,9 promillega), Yuqori Chirchiq (6,2 dan 5,4 promillega), Qibray (5,2 dan 4,5 promillega), Piskent tumanlarida (5,2 dan 4,5 promillega) va Bekobod shahrida (5,2 dan 4,5 promillega) kuzatildi.

O'lganlar umumiy sonidan 61,2 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,2 % - o'sma kasalliklaridan, 5,6 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohlardan, 5,8 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 % - yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 9,1 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.







## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



### 2020-yil yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>4412</b>	<b>4156</b>	<b>918</b>	<b>831</b>
<i>shaharlar:</i>				
Nurafshon	68	46	14	9
Olmaliq	192	181	63	42
Angren	188	155	60	57
Bekobod	144	106	57	36
Chirchiq	184	163	76	60
Ohangaron	62	105	18	29
Yangiyo'l	82	95	26	18
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo'rg'on	199	164	28	20
Ohangaron	103	118	17	14
Bekobod	230	242	35	36
Bo'stonliq	200	208	66	51
Bo'ka	185	192	25	22
Zangiota	255	254	50	48
Qibray	241	234	83	68
Quyi Chirchiq	183	229	34	38
Parkent	436	347	29	28
Piskent	116	164	16	31
O'rta Chirchiq	314	259	28	35
Chinoz	201	211	41	49
Yuqori Chirchiq	257	195	47	57
Yangiyo'l	355	287	47	52
Toshkent	217	199	58	31



**Nikohlar va ajralishlar.** 2020-yil yanvar-mart oylarida FHDYo organlarida 4156 ta nikohlar va 831 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 5,5 ta nikoh (2019-yil tegishli davrida – 6,2 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2019-yilning tegishli davrida - 1,3 ta) to'g'ri keladi.



**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5548 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 6003 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 455 kishiga (2019-yil shu davrida minus 842 kishi) teng bo'ldi.

Eng katta minus qoldiqlar Zangiota (minus 133), Bo'stonliq (minus 119), Bekobod (minus 96), Oqqo'rg'on (minus 91), Yangiyo'l (minus 90) tumanlarida kuzatildi.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	4,5	5,6
<b>Ko'chib ketganlar</b>	5,4	6,0
<b>Migratsiya saldos</b>	-0,9	-0,4




**2020-yil yanvar-mart oylarida aholining migratsiya***(birlikda)*


	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>	<i>2019-yil.</i>	<i>2020-yil.</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b><u>4515</u></b>	<b><u>5548</u></b>	<b><u>5357</u></b>	<b><u>6003</u></b>	<b>-842</b>	<b>-455</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	15	24	39	58	-24	-34
Olmaliq	267	278	220	291	47	-13
Angren	136	343	168	191	-32	152
Bekobod	190	175	141	162	49	13
Chirchiq	407	534	477	386	-70	148
Ohangaron	100	460	61	208	39	252
Yangiyo'l	176	180	103	153	73	27
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	61	90	194	181	-133	-91
Ohangaron	131	156	180	270	-49	-114
Bekobod	175	155	255	251	-80	-96
Bo'stonliq	174	218	241	337	-67	-119
Bo'ka	63	79	174	196	-111	-117
Zangiota	491	556	630	689	-139	-133
Qibray	628	455	611	555	17	-100
Quyichirchiq	267	299	226	319	41	-20
Parkent	89	91	150	168	-61	-77
Piskent	156	244	153	196	3	48
O'rta Chirchiq	200	206	237	258	-37	-52
Chinoz	78	161	143	224	-65	-63
Yuqori Chirchiq	383	338	330	295	53	43
Yangiyo'l	14	226	305	316	-291	-90
Toshkent	314	280	319	299	-5	-19

## 2019-2020 yillarda ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar holati bo'yicha ko'rsatkichlar

2019 yil yanvar-mart



2020 yil yanvar-mart



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
 Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
 Nashr uchun mas'ul: A.Amirov  
 (71) 230-86-78